

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYa KAFEDRASI**

**YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA FANIDAN**

**MA`RUZALAR MATNI**

**GULISTON - 2015**

M.Xolnazarova «YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA » kursidan ma`ruzalar matni . Guliston. 2013.

ma`ruzalar matni zamonaviy ped texnologiya talablariga mos ravishda tayyorlanib, unda o'quv maqsadlari, mavzuda ko'rib chiqiladigan muammolar, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan. ma`ruzalar matnida talabalar tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish tartiblari bayon qilingan. Har bir mavzu oxirida mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

ma`ruzalar matni Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi qoshidagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan (16 oktyabr 2013 yil, 1-bayonnoma) nashrga tavsiya qilingan.

Mas'ul muharrir: O. Suvonov

Taqrizchilar: dots. R.Toshimov. dots. X.Abdukarimov

M.Xolnazarova. Obhaya psixologiya. Uchebno-metodicheskiy kompleks dlya studentov dnevnogo otdeleniya. Gulistan. 2010. ... str.

Danno'y uchebno-metodicheskiy kompleks raskro'vaet nauchno'e i prakticheskie osnovno' psixologii. V nyom otrajeno' osnovno'e komponento' psixologii, eyo formirovanie i vnedreniya v prakticheskuyu deyatelnost pedagogov.

Otvetstvenno'y redaktor: O.Suvonov

Retsezentso': Dots. R.Toshimov, dots. X.Abdukarimov

M.Xolnazarova. A methodical elaboration in "Psychology". Gulistan. 2007. 124 pg.  
This educational - and - methodical elaboration is intended to study the theoretical bases thoroughly, analyze, tasks for the comparing analysis, self-directed works, use gained knowledges in practice.

This methodical elaboration is recommended for printing by educational-methodic committee of Gulistan state university.

Chief editor: O.Suvonov

Reviewers: dots R.Toshimov., X.Abdukarimov.

## **SO'Z BOSHI**

Ma`ruzalar matni majmua zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga mos ravishda qayta ishlanib, unda mavzuga oid muammolar, o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan. Lektsiyalar kursini tayyorlashda «ta'limning ilmiyligi» yoki «ilm orqali bilim egallash» tamoyili asosida shu sohaga oid monografiyalar, jurnallardagi ilmiy maqolalar hamda internetdan olingan materiallardan keng foydalanildi. Har bir mavzudan keyin shu masalaga tegishli ilmiy ishlar ro'yxati berilgan bo'lib, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni olishi mumkin. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish tartiblarini bayon qilishda ushbu mashg'ulot o'tkazishdan kutilayotgan o'quv maqsadlari, kerakli jihozlar va materiallar, ishni bajarilish ketma-ketligi batafsil yoritildi.

Har bir modul oxirida yakuniy xulosalar, bilimini sinab ko'rish uchun nazorat savollari, tegishli adabiyotlar ro'yxati va fanda echimini kutayotgan asosiy ilmiy muammolar mavzulari keltirilgan.

ma`ruzalar matni - metodik majmua «YOSH VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA » kursidan davlat tilida yaratilgan dastlabki o'quv qo'llanmalaridan biri bo'lganligi sababli unda ba'zi juz'iy kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin. Shunga ko'ra qo'llanma haqidagi fikr-mulohalarini bildirgan hamkasblariga muallif o'z minnatdorchiligini bildiradi.

Manzilimiz: 707012. Guliston shahri, 4 mavze, Universitet,  
«Pedagogika va psixologiya» kafedrasи.

GulDU

## **Mavzu: Yosh davrlari psixologiyasi .**

### **R E J A :**

1. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining predmetihaqida tushuncha.
2. Fanning asosiy rivojlanish bosqichlari. Psixik rivojlanish talqinida 2 ta asosiy: biogenetik va sociogenetik yo'nalishlar.
3. Yosh va pedagogik psixologiyaning asosiy tadqiqot metodlari.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**Ontogenez** – organizmning vujudga kelgandan boshlab to umrining oxirigacha bo'lgan individual rivojlanish yo'li.

**Pedologiya** – XIX asr oxiri XX asr boshlarida psixologiyaning amaliy tarmoqlari va eksperimental pedagogika asosida vujudga kelgan fan bo'lib, uning predmeti bolaning psixologik, anatomo – fiziologik, biologik taraqqiyotidir.

Fanning predmeti. Yosh davrlari psixologiyasining predmeti insonning ontogenezida psixik rivojlanish jarayonini shakllanishi hamda o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rghanishdir.

Pedagogik psixologiyaning predmeti esa ta`lim va tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rghanishdir.

**Fanning rivojlanish bosqichlari.** O'tgan ajdodlarimizning ham qomusiy asarlarida bola taraqqiyoti va tarbiyasi masalalari katta o'rinn egallaydi. Abu Nosr Farobiyning "Masalalar mohiyati", Abu Rayhon Beruniyning "O'tmisht yodgorliklari", Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarlari, A.Navoiyning "Mahbub ul-qulub" va boshqa juda ko'p asarlar shular jumlasidandir. Umuman sharq va G'arb madaniyatida ham psixologik – pedagogik mazmundagi asarlar XVII-XVIII asrlarda diniy-axloqiy negizda yozilgan. XVIII asrga kelibgina ma'lum uslubga ega bo'lgan ilmiy fikrlar vujudga kela boshladi. Rus social-demokratlari A.N.Gercen, N.G.Cherkishevskiy, N.A.Dobrodyubov, V.G.Belenskiylarning inson kamoloti to'g'risidagi qarashlari psixologiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdii. I.M.Sechenov, I.P.Pavlov g'oyalariga asoslangan Ribakov, K.N.Kornshlov, P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy va boshqa olimlar yosh psixologiyasi bo'yicha qimmatli tadqiqotlarni amalga oshirdilar.

XX asrga kelib yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada psixik taraqqiyot omillarini talqin etuvchi 2 ta yo'nalish: biogenetik va sociogenetik yo'nalish vakillari yuzaga keldi. Biogenetik yo'nalish vakillari uchun psixik rivojlanishni belgilovchi irsiy biogenetik va ijtimoiy omillar yonmayon turadi, lekin etakchi rolni biologik ya`ni irsiy omillar bajaradi. Bunday qarashning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri amerikalik psixolog S.Xolle (1844-1924) bo'lib, u Gekelning **biogenetik** qonunini psixologiyada bevosita ko'chiradi. Bu nazariyaga ko'ra bola o'z psixik taraqqiyotida insonning tarixiy rivojlanish bosqichlarini qisqargan holda boshdan kechiradi.

**Sociogenetik** yo'nalish vakillari esa ijtimoiy omillarni etakchi deb hisoblaydilar. G'arbda keng tarqalgan nazariyalar jumlasiga rollar nazariyasi K.Levinning "Fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi va boshqalar kiradi.

XX asrning 20-30 yillaridan boshlab Rossiyada yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya intensiv rivojlandi. Shu davrda L.V.Vigotskiyning oliy psixik funkciyalarini rivojlanish nazariyasi yaratildi. Jumladan L.S.Vigotskiy psixik taraqqiyotni 2 zonaga: real va yaqin zonaga bo'lib o'rgandi.

Barcha boshqa psixologiyaning tarmoqlari singari yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya ham o'z tadqiqot metodlariga ega. Yosh va pedagogik psixologiyaning asosiy empirik metodlari quyidagilar:

a) kuzatish

U tashqi kuzatish va o'z-o'zini kuzatish ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. Lekin bu metod har doim ham psixik jarayonlarning xususiyatlari haqida to'liq ma'lumot bera olmaydi.

b) tajriba metodi

U 2 xil: tabiiy va laboratoriya sharoitida o'tkazilishi mumkin. Bulardan tashqari psixologiyadagi xususiy metodlar ham psixik rivojlanish haqida qimmatli materiallarni to'plash imkoniyatini beradi.

- suhbat metodi yakka shaxs yoki guruhlarda o'tkaziladigan erkin muloqot;
- test metodi shaxsning aqliy taqqiyoti qobiliyatları va boshqa sifatlarını o'lchash imkonini beradigan qisqa standart savol va topshiriqlardir. Hozirgi davrda nodir testlar qatoriga Rorshax, Rozencveyg, Kettel, Veksler, Anastazi, Roven va boshqalarning testlari kiradi;
- biografiya metodi insonning hiyoti, faoliyati, ijodi haqidagi og'zaki va yozma ma'lumotlarni to'plashdir;
- anketa metodi vositasida esa turli yoshdagি odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hoidsalarga munosabati o'rganiladi;
- faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish metodikasi kuzatish metodining bir ko'rinishi sifatida bolalarning chizgan rasmlari, yasagan o'yinchoqlari kabi faoliyat mahsulotlariga asoslanib uning psixik rivojlanishi haqida xulosa chiqarish imkoniyatini beradi;
- sociometrik metod kichik guruh a`zolari o'rtasidagi munosabatlar va shaxsning guruhdagi statusini aniqlash metodidir.

### ***NAZORAT UCHUN SAVOLLAR***

1. Biogenetik va socioogenetik yo'nalish vakillari psixik taraqqiyot omillarini talqin etishda qanday farqlanadilar?
2. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyasida tadqiqotlarni tashkil etish metodlari qanday?

3. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyasida emperik materiallarni to'plash metodlari haqida nima bilasiz?

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR :**

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". 1997 y.
2. "Ta`lim to'g'risida"gi qonun. Xalq ta`limi. 1992 y. 10-son.
3. I.A.Karimov asarlari asosida talaba o'quvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashning asosiy tamoyillari. T. 1998 y.
4. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh ibn Ismoil - "Hadis" T: Qomuslar bosh tahririyati.
5. Davletshin M.G. "Ta`limning psixologik asoslari". T: O'qituvchi, 1978 y.

**Mavzu:** Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi

### **R E J A :**

1. Taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchlar.
2. Yosh davrlar haqidagi tushuncha.
3. Psixik taraqqiyot qonuniyatları.
4. Yosh krizislari va etakchi faoliyati.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**Senzitiv davr** – biror psixik funkciya yoki xususiyatning rivojlanishidagi eng tez va qulay davr.

**Interiorizaciya** – avval tashqariga, boshqa odamlarga qaratilgan psixik funkciyaning shaxsning ichki funkciyasiga aylanishi.

**Akseleraciya** – bolalar va o'smirlarda ma'lum davrlarda somatik va fiziologik o'sishning tezlashuvi.

**Yosh** – psixik taraqqiyotning sifat jihatdan chegaralangan bosqichi bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan barcha normal kishilar uchun tipik hisoblanadi. Har bir yosh davriga xos taraqqiyotning ijtimoiy situaciysi mavjud.

**Taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlar.** Shaxs taraqqiyotidagi ichki ziddiyatlar psixik taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir.

Asosiy ziddiyatlardan biri shaxsda paydo bo'ladigan yangi ehtiyojlar va ularni qondirish uchun zarur vositalarning etishmasligidir. Shaxs taraqqiyotining erishgan darajasi, hayot tarzi va uning ijtimoiy munosabatlar sistemasida tutgan o'rni o'rtasidagi ziddiyat ham muhim ziddiyatlardan biridir. Shaxs yangi sharoitga moslashishga intiladi (bog'chada, muktabda). Ta`lim va tarbiya jarayoni ham shaxs oldiga yangi vazifalarni qo'yadi, faoliyatning yangi motivlarini hosil qiladi.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqlash bo'yicha qator nazariyalar mavjud. Masalan, psixodinamika nazariyasini yorqin vakillaridan biri e.erikson nazariyasiga ko'ra inson umri 8 davrga bo'linadi:

1-davr – go'daklik; 2-davr – ilk bolalik; 3-davr – o'yin yoshi; 4-davr – məktəb yoshi; 5-davr – o'spirinlik; 6-davr – yoshlik; 7-davr – etuklik; 8-davr – qarilik davri.

E.Shpinger, K.Byuler, A.Maslou va boshqalar personologik nazariyaning vakillari bo'lib, ular yosh davrlarini shaxs "men" xususiyatlarining shakllanishi bosqichlari deb hisoblaydilar.

Kognitivistik yo'nalişning asoschilari qatoriga J.Piaje, Dj.Kelli va boshqalarni kiritish mumkin. J.Piaje intellektni quyidagi rivojlanish davrlariga ajratadi.

- 1) sensomotor intellekti (tug'ulishdan 2 yoshgacha)
- 2) operaciyalardan ilgari tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha)
- 3) konkret operaciyalar davri (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha)
- 4) formal (rasmiy) operaciyalar davri.

Sobiq sovet psixologlari L.S.Vigotskiy, L.I.Bojovich, D.B.el`konin, A.A.Lyublinskaya, V.A.Kruteckiy, A.V.Petrovskiyalar ham yosh davrlarini o'ziga xos tabaqlash nazariyalarini yaratdilar. Ular orasida D.B.el`koninning tasnifi alohida o'rın tutib, etakchi faoliyat nazariyasiga asoslanadi. Bu nazariyaga ko'ra har bir yosh davrida biror faoliyat turi inson shaxsi shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Bu yosh davrlari quyidagilar:

- 1) go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha; asosiy faoliyat – bevosita emocional muloqot.
- 2) Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha; asosiy faoliyat – predmetli faoliyat.
- 3) Məktəbgacha davr – 3 yoshdan 7 yoshgacha; asosiy faoliyat – rolli o'yinlar.
- 4) Kichik məktəb yoshi davri – 7 yoshdan 10 yoshgacha; asosiy faoliyat – o'qish.
- 5) O'smirlilik davri – 10 yoshdan 15 yoshgacha; asosiy faoliyat – muloqot.
- 6) Ilk o'spirinlik davri – 15 yoshdan 18 yoshgacha; asosiy faoliyat – o'qish, kasb tanlash.

Psixik taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish bosqichlarida yosh krizislari yuz beradi. Krizislар ikki yosh davri oralig'ida yuz bergenligi sababli 1 yosh davrining tugashi va ikkinchi yosh davrining boshlanishiga to'g'ri keladi. Barcha yosh krizislari ba`zi umumiy belgilarga ega. Bolalar krizislар davrida qaysar, asabiy bo'lib qoladilar, kattalar bilan nizolar paydo bo'ladi, avvalo bajaradigan ishlarini qilishdan bosh tortadilar. Krizislар davrida paydo bo'ladigan yangi ehtiyojlari qondirilmaydigan bolalar shunday reakciya namoyon qiladilar.

Shaxsning ontogenezidagi ijtimoiy rivojlanish 2 yo'nalişda: ijtimoiylashuv va individuallashuv ko'rinishida bo'lib turli yosh davrlaridagi krizislар ham mos ravishda turli xarakterga ega. Masalan: 1, 6, 15 yoshlilar krizislari ijtimoiy tajribani o'zlashtirish muhitda o'z poziciyalarini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lsa 0, 3, 10, 17 yoshdagи krizislар esa o'zini anglash, ko'rsatish, atrofdagilarning tan olishi uchun kurashish asosida yuzaga keluvchi krizislardir.

Bola avval ma`lum darajaga etib, keyin tarbiyalanmaydi, balki ta`lim va tarbiya jarayonida psixik rivojlanadi. Bunda psixologlar Vigotskiy tomonidan aniqlangan qoidaga, ya`ni ta`lim berish bola ko'lga kiritib bo'lgan rivojlanish darajasini ko'zlamasdan, bir muncha olg'a ketish, bolaning tafakkurida uning mavjud imkoniyatlarini bir muncha oshiradigan talablar qo'yishi u erishgan va yaxshi o'zlashtirib olgan analitik-sintetik faoliyat darajasini talab qilish kerak degan qoidaga asoslanadilar.

L.S.Vigotskiy ta`limining aqliy rivojlanishdagi etakchi rolini ta`kidlar ekan, ta`lim bolaning rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim deb hisoblangan edi. Ta`lim rivojlanishning faqat tugallangan darjasida qurilmasdan, avvalo hali unga tarkib topmagan narsalarga tayanmog'i kerak. L.S.Vigotskiy boladagi aqliy rivojlanishning 2 darjasini haqidagi qoidani ifodalab berdi. Birinchi daraja, Vigotskiy atyanidek, aktual rivojlanish darjasini – o'quvchi tayyorligining mavjud darjasini bo'lib, u o'quvchining qanday topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Yancha yuqori bo'lgan ikkinchi daraja (uni Vigotskiy eng yaqin rivojlanish zonasini deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan (yo'l-yo'riq beruvchi savollar ...) nimaning uddasidan chiqa olishini ko'rsatadi. Vigotskiy bola bugun kattalar, o'qituvchi yordamida bajarayotgan narsani ertaga mustaqil ravishda o'zi bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, ta`lim jarayonida aktual rivojlanish jarayoniga o'tadi deb ta`kidlagan edi. Har qanday psixik funkciya inson hayoti davomida 2 marotaba namoyon bo'ladi: avval ijtimoiy, so'ngra psixologik xarakterdadir, avvaliga psixik funkciya odamlar orasida interpsixik ko'rinishda bo'lsa, so'ngra bola uchun intrapsixik ko'rinishdadir. Bu qonuniyat barcha psixik funkciyalar, ixtiyoriy diqqat, mantiqiy xotira tushunchalarining, irodaning rivojlanishiga tegishlidir. Har qanday funkciya avval boshqa odamlarga qaratilgan bo'lib, so'ngra shaxsning ichki funkciyasiga aylanadi. Ontogenezda psixik bir bosqichdan sifat jihatdan boshqa bosiqchga qadamma-qadam o'tishdir. Har bir yosh davrlarda tashqi ta`sirga psixikaning sezuvchanlik xususiyati turlicha bo'lib, u yoki bu psixik funkciya rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Bunday davrni – shu psixik funkciyaning senzitiv davri deyiladi. Masalan, 1 yoshdan 3 yoshgacha davr nutq rivojlanishining senzitiv davridir. Kichik maktab yoshi o'quv faoliyati uchun senzitivdir. Bu yoshdagagi bolalarning xususiyatlari, xususan o'qituvchining obro'li ekanligi, ishonuvchanligi, tirishqoqligi bunga imkon beradi. O'spirinlik yoshi esa o'z ichki dunyosini bilish uchun qulay davrdir. Ularning emocional sferasining boyishi, o'z-o'zini boshqarish va ma`suliyligi seziladi. Bola psixik rivojlanishining turli yo'nalishi mavjudligini unutmaslik lozim. Funkional rivojlanish bevosita bilim va malakalarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lsa, yosh davriga xos psixofiziologik rivojlanish bilan belgilanadigan yosh davri rivojlanishidir.

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent. 1996.

2. I.A.Karimov. Brakamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997.
3. E.G`oziev. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. 1997.
4. E.G`oziev. Psixologiya muammolari Toshkent. 1999.
5. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent. 2000.
6. Kon I.S. Psixologiya yunosheskogo vozrasta. M.: 1979
7. Mudrik A.V. O vospitanii starsheklassnikov. M.: 1981
8. Klimov E.A. Put` v professiyu. Leningrad: 1980
9. Zaxarova A.V. Psixologiya obucheniya starsheklassnikov. Riga: 1980

### **Ontogenezning ilk bosqichlarida insonning psixik rivojlanishiga xos xususiyatlar Rejasি**

1. Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha.
2. Tug'ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida.
3. Gudaklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlari).
4. Bir yosh inqirozi haqida.
5. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.
6. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari.
7. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi.

#### **1. Go'daklikdagi psixologik rivojlanish asoslari va xususiyatlari**

**Chaqaloqlik** (tug'ilganidan boshlab bir-ikki oylikkacha). Bola ko'pchilik jonivorlarning bolasiga qaraganda ancha ojiz tug'iladi. U nisbatan cheklangan xulq-atvor, tashqi olamga moslashishning muqarrar-reflektor shakllari jamg'armasiga ega bo'ladi. Tug'ma xulq-atvor shakllarining kamligi bola kuchsizligini emas, kuchini tashkil etadi – u deyarli cheksiz aqliy rivojlanish, xulq-atvorning yangi shakllariga ega bo'lishning yangi tajribalarini o'zlashtirish imkoniga sohib bo'ladi. Chaqaloq rivojlanishining farqli xususiyatlari shuki, uning analizatorlari faoliyati somatik (jismoniy) harakatlarga qaraganda tezroq shakllanadi. Shu asosda munosabat refleksi rivojlanadi va xilma-xil shartli reflektor aloqlari shakllana boshlaydi. Chaqaloqlik davri oxiri va go'daklikning boshlanishida «tetiklanish kompleksi» - kattalarnig paydo bo'lighiga munosabat bildirish paydo bo'ladi.

**Go'daklikda** (bir-ikki oylikdan bir yoshgacha) go'dak to'laligicha kattalarga bog'liq bo'ladi (uni ovqatlantirishadi, Yuvintirishadi, yo'rgaklashadi, ag'darib qo'yishadi, qo'lga olishadi, sayr qildiri-shadi, allalashadi, gapirishga, Yurishga o'rgatishadi va h.k.). <sup>2</sup>ayotining birinchi yili so'ngiga kelib go'dak ayrim so'zlarni tushunadi va ilk so'zlarni ayta boshlaydi. Tasodifan odamlar davrasidan chiqib qolgan inson bolasi o'z rivojlanishida insoniy imkoniyatlar darajasigacha ko'tarila olmaydi. Faqat ijtimoiy muhit va ta'lim natijasidagina bolada insonlarcha his qilish va fikrlashga qodir shaxsiyat shakllanadi. Go'daklik so'ngida bolalar kattalarga taqlid qila boshlaydilar. Maqsadli harakat va taqlid intensiv rivojlanayotgan intellektdan (aqliy faoliyatdan) dalolat beradi. Bola harakat jarayonida, o'zining va boshqalarning harakatlariga taqlid qilib, fikrlashga o'rganadi.

#### **2. Ilk bolalik yoshi tavsifi**

**Ilk bolalik yoshi (bir yoshdan uch yoshgacha).** Ko'pchilik psixologlar tug'ilgandan voyaga etgunga qadar insonning psixologik rivojlanish yo'lining o'rtasi 3 yosh deb hisoblashadi. Uch yoshli bola o'z-o'ziga xizmat qila oladi, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishishni biladi. Bunda u og'zaki muloqot qilishni biladi, unda xulq-atvorning eng oddiy shakllari shakllanadi. Bola uch yoshda etarlicha faol va atrofdagilarga tushunarlidir. Uning xarakteri va temperamenti xususiyatlari allaqachon namoyon bo'la boshlaydi. L.N.Tolstoy shunday deydi:

*Besh yoshdan to mengacha – bir qadam,*

*Tug'ilishdan besh yoshgacha – abadiyatdir.*

*2omiladan tug'ilishgacha – girdobdir,*

*Yo'qlikdan homilagacha – mavhumlikdir.*

Bolaning psixik rivojlanishiga to'g'ri Yurishga o'rganish sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Lokomosiya («doko» - joy, «mosiya»-harakat) dasturi hali shakllanmagan, shuning uchun bola doimo muvozanatini yo'qotadi. <sup>2</sup>arakatlana olishi qobiliyati tufayli bola tashqi dunyo bilan nisbatan erkinroq va mustahkamroq muloqot qilish davriga kirib keladi. Mushak hissi masofani hisoblash va buyumlarning makondagi joylashuvini aniqlash mezoniga aylanadi. Bolaning psixik rivojlanishiga predmetlar harakati sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Narsalar, predmetlar mohiyati bola tomonidan bolalik davrida egallanadi. Bolalik oxirida (hayotning uchinchi yilda) yangi faoliyat turlari (rasm chizish, kuylash, haykaltaroshlik, loyihalashtirish) Yuzaga kela boshlaydi.

Predmetli faoliyatda belgilangan taassusurotlarning to'planishi bola nutqining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Faqat so'z ortida real dunyo obrazlari turgandagina bu so'zning o'zlashtirilishi muvaffaqiyatli kechadi. Agar bola, ma'lum bir sababga ko'ra, bu yoshda nutq rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitdan mahrum bo'lsa, unda yo'qotilgan imkoniyat o'rnnini to'ldirish oxir-oqibat juda murakkab bo'lib qoladi, chunki bu yosh nutq rivojiga nisbatan senzitiv (sezgir)dir: aynan mana shu paytda nutq o'zlashtirilishi ancha samarali kechadi.

**Ilk bolalik yoshi – bolada faol nutq shakllanishi davridir. Bir yarim yoshgacha bola 30-40 tadan 100 tagacha so'z o'zlashtiradi, ikkinchi yil oxirida bola 300 tagacha, uchinchi yil oxirida esa 1500 tagacha so'z ishlatadi.**

Nutq rivojlanishi ona tilining tovush xususiyati va grammatic tuzilishini egallahni taqozo etadi. Dastlab bola nutqni so'zning umumiy ritmik-melodik (tezlik, ohang) tuzilishini ilib olish yo'li bilan qabul qilsa, ikkinchi yil oxiriga kelib u ona tilining barcha tovushlarini fonematik qabul qiladigan bo'ladi va shu asosda lug'at va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi. Faol nutqning shakllanishi bolaning butun psixik rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Ilk bolalikdagi aqliy rivojlanish.**

Bolalik avvalida bola atrofidagi predmetlar xususiyatini, predmetlar orasidagi eng oddiy aloqalarni ilg'aydi va ulardan foydalana boshlaydi. Bu predmetli faoliyat, oddiy elementar o'yin shakllari, rasm chizish, nutqni egallah bilan bog'liq ravishda ro'y beruvchi keyingi aqliy rivojlanish uchun asos bo'ladi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaklik, o'zi o'rgatuvchi o'yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bolani tez rivojlantiradi.

Ko'rish bilan birga bolalikda eshitish orqali qabul qilish ham rivojlanadi. Ayniqsa fonematik eshitish jadal rivojlanadi. Odatda, ikkinchi yil so'ngida bolalar ona tilining barcha tovushlarini qabul qiladi. Biroq fonematik eshitishning mukammallashishi keyingi yillarda ham ro'y beradi.

Fikrlash rivoji uchun vositali harakatlar juda muhim. Vosita bolaning predmet dunyosiga ta'sir qilishiga xizmat qiladi. Bola eng katta tajribani kattalar bilan nutqiy muloqot natijasida qabul qiladi.

Hayotning uchinchi yilda bola aqliy rivojlanishida muhim siljish sodir bo'ladi – ongning **belgili** (yoki ramziy) funksiyasi shakllana boshlaydi. U bir ob'ekt o'rnnini bosuvchi sifatida boshqa bir ob'ektdan foydalanish imkoniyatidan iborat. Bunda predmetlar bilan emas, balki ularning o'rnnini bosuvchilar bilan harakat amalga oshiriladi.

Turli belgilar va ularning tizimidan foydalanish – inson psixikasining o'ziga xos eng xarakterli xususiyati. Belgilarning har qanday turi (til, matematika ramzları, surat va musiqada mohirona ifodalangan dunyo va h.k.) odamlar orasidagi muloqot uchun xizmat qiladi, predmet hamda hodisalar vazifasini bajaradi va anglatadi. Erta yoshda belgili funksiya dastlab amaliy faoliyat bilan bog'liq ravishda rivojlanadi va faqat keyinchalik so'zlardan foydalanishga o'tiladi.

Bola va katta yoshdag'i odam. Ontogenezda kattalar bilan muloqot bolalarda birdaniga paydo bo'ladi, ancha keyin esa bolaning tengdoshlari bilan munosabat o'rnatiladi.

## **Reja**

### **1. Chaqaloqlik davri psixologik xususiyatlari.**

2. Go'dak va muloqot.
3. His-tuyg'uning o'sishi

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta'minlovchi asosiy omil tug'ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir. U tashqg'i sharoit va muhitga moslashish imkonini beradigan, nisbatan etilgan nerv sistemasi bilan tug'iladi. Tug'ilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olish hamda nafas chiqarishni ta'minlaydi.

Birinchi kundanoq kuchli qo'zg'atuvchilarga nisbatan ko'zni qisish, pirpiratish, uning qorachig'ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni himoya reflekslari deyiladi.

Chaqaloqda himoya reflekslaridan tashqari, qo'zg'atuvchilar bilan aloqa o'rnatishga xizmat qiladigan reflekslar ham bo'ladi. Bularni orientir reflekslari deb ataladi. Chaqaloqlarni kuzatishlarda ikki uch kunlik bola xonaga quyosh nuri tushishi bilan boshin yorug'lik tomonga burishi, chaqaloq xonaga asta kirib kelayotgan nur manbaini ham sezishi yaqqol ko'rindi.

Yuqorida aytilgan reflekslardan tashqari, bolada bolada bir necha tug'ma tabiiy reflekslar ham uchraydi; emish refleksi og'ziga tushgan narsani so'rishga o'z ifodasini topsa qo'l kaftiga biror narsaning tegishi ushslash, chang solish reaktsiyasini vujudga keltiradi. o'zidan narsani itarish, uzoqlashtirish refleksi mavjudligini kursatadi va bu hol tovonga qandaydir jism tegishi bilan uni o'zidan uzoqlashtirishda namoyon bo'ladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug'ilshiga qadar ham shartsiz refleksslari bo'lishi, unga homilalik paytidayoq o'z qo'lini so'rish imkonini yaratadi.

Tug'ilgan chaqaloqning vazni tez kamaya boradi. Buning sababi undan suyuqlik moddasining chiqib ketishi, vaznsizlik holatian atmosfera bosimiga, quyosh nuriga, turli xususiyatlari moddalar ta'siriga, o'zgaruvchan havo haroratiga moslashish davrida ko'p kuch-quvvat sarflanishidir. Bu davrning kechishida chaqaloqlarning ham individual, sham jismoniy tafovutlari ko'zga tashlanadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay chaqaloq vaznnining kamayishi tabiiy ravishda to'xtaydi va uning yangi muhitga moslashishi boshlanadi. Kindik tushish davri organizmda keskin o'zgarishlar yuz berish pallasi hisoblanib, murg'ak organning mustaqil yashayotganidan dalolat beradi. Chaqaloqning oldingi vazniga etish davri hayotining birinchi o'n kunligiga to'g'ri keladi.

Chaqaloq organizmining anatomik- fiziologik, morfologik tuzilish bo'yicha, boshqa yoshdagi odamlarnikidan farqi ham rivojlangani, zaifligi, ish qobiliyatining kuchsizligidir. Uning suyak sistemasiE, pay-muskullari va tog'ay to'qimalarining o'sishi katta yoshdagagi kishilarnikidan ham sur'at, ham sifat jihatidan farqlanadi. Chaqaloqdagi muskullarning takomillashishi harakat negizini vujudga keltiradi; shu birga har bir biologik organning mutaqil harakati va faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi. Bolada bo'yin muskullarining o'sishi bo'ynini tutishga olib kelsa, tana muskullarining rivojlanishi kattalar yordamida ag'anash imkonini, qo'l va oyoq muskullarining etilishi esa jismoniy harakat qilish, jismlarga qo'l cho'zish uchun sharoit yaratadi.

Chaqaloqning anotamik-fiziologik tuzilishini tahlil qilsak, uning suyak sisitemasida ohak moddasi va har xil tuzlar etishmasligining guvohi bo'lamiz. Shu sababli suyak funktsiyasini ko'proq tog'ay to'qimalari bajaradi. Bosh suyaklari bolalarning ikki oyligida o'zaro qo'shilib ketadi. Bosh suyakning peshona va tepa qismlari o'rtasida liqildoq deb ataladigan qalin parda va teri bilan qoplangan oraliq mavjud bo'ladi. U bola bir yoshdan oshganidan keyin suyak bilan qoplanib boradi, lekin u haqiqiy suyak bo'lmaydi.

Chaqaloq nerv sistemasining yuksak darajada rivojlangan qismi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlari tashqi ko'rinishi bilan katta odamnikiga aynan o'xshasa ham, aslida undan ko'p farq qiladi. Odamlarni o'zaro qiyoslasak, ajoyib manzarani ko'ramiz: miyaning og'irligi chaqaloq tanasining sakkimzdan bir va katta odamlarda esa qirqdan bir qismini tashkil etadi. Chaqaloqlarda bosh gavdaga nisbatan kattaroq ko'rinsada, u hali juda bo'sh, mukammallashmagan bo'ladi. Ularning organizmi jadal sur'at bilan o'sish davridan o'tadi. Bu davrda chaqaloqning og'irligi 3-5 kg bo'lishiga qaramay, miyasining og'irligi 300-350 grammni tashkil qiladi, xolos. Chaqaloqning miyasi xujayralarining miqdori, "ariq"chalarning yaqqol ko'zga tashlanmasligi, nerv xujayralri tarmog'i jihatidan katta odamlarning miyasidan farq qiladi.

Yuqoridagi fikrlarni isbotlashda harakat qilgan psixolog E.A.Arkinning ta'kidlashicha, -bola tug'ilishga harakat qilayotgan paytida uning miyasini bir xil kulrang massa tashkil etadi, uning nerv tolalarida mislin qobig'i bo'lmaydi.

Chaqaloq boshqa yosh davridagi odamlarga qaraganda kuchsiz, zaif, ojiz ko'rinsa-da, ba'zi jihatlari bilan kattalardan ustunlik qiladi. E.A.Arkinning fikricha, chaqaloqlik davrining kuchli jihatlari ko'pincha uning o'sish quvvatida o'z ifodasini topadi. U har oyda ikki sm dan o'sadi, uning og'irlig har kuni 1,6-2 grammdan ortib boradi. Uning shiddatli sur'at bilan o'sishi ko'proq individning vegetativ nerv sistemasi, ichki sekretsiya (buqoq, qalqon osti va usti) bezlarining faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ichki sekretsiya bezlari ishlab chiqargan maxsus gormonlar qonga so'rilib, organizmning jismoniy o'sishini belgilaydi. Chaqaloqning g'oyat jadal sur'atlar bilan o'sishi shu davrning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'ishiga ta'sir etuvchi omillar ovqat, sof havo, quyosh nuri, nafas olish, parvarish va hokazolar.

Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Shartsiz tug'ma reflekslar bolaning tug'ilishi arafasida etarli darajada etilishi sababli unda qon aylanish, nafas olish, ovqat hazm qilish, siyidik chiqarish singari eng muhim vegetativ funktsiyalar amalga oshadi. Masalan qorni och chaqaloqlar labiga biror narsa tegishi bilan unda emish harakati vujudga kelib, so'laklari oqa boshlaydi. Bu ovqatlanishning shartsiz refleksi deyiladi.

Bolada taassurot olish ehtiqli paydo bo'lishi bilanoq, orientir refleksi bilan aloqa o'rnatadi, hissiy ilish organlarining tayyorlik darajasiga muvofiq mavjud ma'lumotlarni qabul qiladi va shu jarayonda o'zini ham rivojlantiradi. Chaqaloqning ko'rav va eshituv apparati dastlabki kundanoq ishga tushsa ham, ular hali etilmagan bo'ladi. Shu sababli ko'rish sezgisini yorug'lik, eshitish sezgisini esa qattiq tovush vujudga keltiradi. Bola harakatdagi jismlarni kuzatishga intilsa ham, aslida qimirlamay turgan narsalarga ko'proq diqqatini to'playdi. Uning ruhiy dunyosida ko'rav va eshituv apparatlariga mos ravishda diqqatning muayyan ob'ektga to'planishi jarayoni asta-sekin vujudga keladi.

Chaqaloqning sezgi organlari uning harakatiga qaraganda durustroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issiqni sovuqdan, ho'lmi quruqdan farqlay oladi. Uning hid bilish organlari juda zaif bo'lishiga qaramay, burniga yoqimsiz hidli modda yaqinlashtirilsa, bezovtalanadi. Bola teri tuyush, haroratni his qilish, sezish, og'irlilikni faxmlash, ta'm bilish sezgilarini ham etarli darajada rivojlangan bo'ladi.

Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof-muhitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish insonning boshqa psixik jarayonlari (xotira, tasavvur, tafakkur), ruhiy holatlari (his-tuyg'u, o'ng'aysizlanish) va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan uзвиy bog'liqlikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqaloqda mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega.

Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkonini bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, hatto, ko'zlarini yumib oladi. Ko'rish mexanizmlari hali o'sib ulgurmagani sababli tinch holatdagi yoki harakatdagi jismni idrok qila olmaydi. Goho o'n kunlik chaqaloq harakatdagi jismga nigoh tashlagandek ko'rinsa-da, aslida unga bir necha sekund termilishdan nari o'tmaydi.

Chaqaloqda eshitish sezgisi zaif rivojlangan bo'lsa ham, u hali o'zi eshitishga moslashmagan kuchli qo'zg'atuvchilarni (tovush, qichqiriqni) aks ettira oladi, biroq tovush kelayotgan ob'ektni aniq topa olmaydi.

Ko'rish va eshitish organlarining muayyan ob'ektga yo'nalishi oyoq-qo'l va boshning harakatida, bolaning yig'lashdan to'xtashiga ko'rindi.

N.L.Figurin va M.P.Denisovning ia'kidlashicha, bolaning bir oylikkacha davridagi tetiklik holati (uyg'oqligi) ko'rish va eshitishga yo'nalgan shartsiz reflekslar tufayli faollahib boradi; tovush ta'siriga berilish 2-3 haftalikda vujudga keladi. Shuning uchun bola surnay sadosiga qulq soladi va yig'idan yoki harakatdan to'xtaydi. Bir oylik bo'lgach unda orientir refleksi namoyon bo'ladi. (I.P.Pavlov). Shu sababdan chaqaloq gaplashayotgan odamga tikiladi va ixtiyorsiz hatti harakatdan o'zini tiyib turadi.

Bola ob'ektni ko'rish va tovushni eshitish uchun diqqatini to'playdigan bo'lgach harakatining faollashuvida ancha o'zgarishlar ro'y beradi. Odatda uning harakati ixtiyorsiz va tartibsiz ravishda amalga oshib, jismlarga ko'z yogurtirish, boshini burish bilan tugasa ham, harakat hodisasi vazifasini bajaradi: o'zida hulqining sodda ko'rinishini ifodalab, bolani voqelik, tashqi olam bilan uzviy bog'laydi.

D.B.Elkonin fikricha, chaqaloq hayotining uchinchi haftasida onaning emizishdagi holatiga moslashish bilan bog'liq birinchi tabiiy shartli refleks vujudga keladi va keyinchalik esa ba'zi qo'zg'atuvchilarga javob tariqasida alohida shartli reflekslar ham paydo bo'ladi.  
**his-tuyg'uning o'sishi (jonlanish).**

Chaqaloqning hayoti qichqiriq sadosi bilan boshlanadi va bu ko'pincha shartsiz reflektor xususiyatidan kelib chiqadi. Dastlabki qichqiriq tovush orlag'i qisilishining bevosita mahsuli sifatida, organizmning tabiiy ehtiyoji natijasida vujudga keladi. Qisilish avval nafas olish refleksini ham boshqaradi. Shunga qaramay, mutaxxassis olimlarning fikricha, birinchi qichqiriq noxush his-tuyg'uning namoyon bo'lishidir. Qisilish tanglik (zo'riqish) tuyg'usining vujudga kelishidir. Shuning uchun chaqaloqdagi muskul reaktsiyasi bilan emotsiyal munosabatni farqlash ancha qiyin. Qichqiriq noxush kechinma va sezgilarga javob tariqasida vujudga kelib, issiqqa, ochlikka va namlikka qarshilik vazifasini bajaradi. Chaqaloqni to'g'ri tarbiyalash jarayonida qichqiriq emotsiyal kechinmalarning yana bir turi yig'lashga aylanadi. Yig'lash bola jismniy og'riqni, ruhiy qayg'uni, iztirobni tabiiy aks ettirishining manbai bo'ladi, tashqi olam bilan aloqa o'rnatishning eng zarur vositasi sifatida chaqaloqning hayot faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U noxush tuyg'ularnigina aks ettirib qolmay, tabiiy ehtiyojzlarni qondirish mexanizmi sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Bola bir oyga to'lgach o'zini parvarish qilayotgan odamga initialidigan, talpinadigan bo'ladi va buning misoli tariqasida uning kishilar orasida "o'z" kishisini tanishi va ajratishin aytish mumkin.**

Mazkur psixolog holatni N.L.Figurin va M.P. Denisovalar "jonlanish" deb ataganlar. Bu davrda, bolaning psixik dunyosida tetiklik, his-tuyg'usida esa atrof-muhitdan ta'sirlanisho'z aksini topadi. Ularning fikricha, bolaning katta yoshdag'i odamlarga o'z munosabatini bildirishi uning bundan keyingi o'sishini belgilovchi bosqich vazifasini o'taydi.

Psixolog E.K.Kaverina bolaning tashqi ta'siriga javob bildirishini tadqiq qilib, unda odamning va jismlarga munosabat bir xillagini ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning aft-angoriga qarab ijobji his-tuyg'ular uyg'onishi keyinchalik vujudga keladi. Ta'sirga berilish va ta'sirlanishning mazkur shakli bola bilan kattalar o'rtasidagi aloqaning boshlang'ich ko'rinishi hisoblanadi. Shaxslararo aloqaning bu shakli chaqaloqlik davrining tugashi va ilk bolalikning boshlanishidan dalolat beradi.

**Psixolog D.B.Elkonin nazariyasiga ko'ra chaqaloqlik davridan ilk bolalik, go'daklik davriga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Bular:**

1. Ko'z va qulq yordamida diqqatni muayyan ob'ektga qaratish (to'plash)ning paydo bo'lishi, bola harakat faoliyatining qayta qurilishi boshlangani, alohida namoyon bo'luvchi harakatning xulq hodisasiga aylanishi.
2. Sirdan idrok qilinuvchi barcha ob'ektlarga (sub'ektlarga) yo'nalgan alohida qo'zg'atuvchiga nisbatan shartli reflekslar hosil bo'lishi.
3. Katta yoshdag'i odamlarga (onasiga va yaqin kishilarga) nisbatan emotsiyal reaktsiyalar (his-tuyg'ular, kechinmalar) yangi ehtiyoj paydo bo'lishining ko'rsatkichi ekanligi.
4. Bolaning (chaqaloqning) kattalar bilan muloqatda bo'lish ehtiyoji uning keyingi psixik o'sishi negizini tashkil etish va hokazolar.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

10. I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent. 1996.
11. I.A.Karimov. Brakamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997.
12. E.G`oziev. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent. 1997.
13. E.G`oziev. Psixologiya muammolari Toshkent. 1999.

14. V.Karimova. Psixologiya. Toshkent. 2000.
  15. Kon I.S. Psixologiya yunosheskogo vozrasta. M.: 1979
  16. Mudrik A.V. O vospitanii starsheklassnikov. M.: 1981
  17. Klimov E.A. Put` v professiyu. Leningrad: 1980
- Zaxarova A.V. Psixologiya obucheniya starsheklassnikov

**Mavzu:** Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

### **R E J A :**

1. Go'daklik yoshining psixik taraqqiyoti.
2. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish.
3. Maktabgacha yosh davrda psixik taraqqiyot.
4. Bolaning mакtab ta`limiga psixologik tayyorligi muammosi.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Predmetli faoliyat – ilk bolalik davrida etakchi faoliyat turi bulib, bola atrofidagi predmetlarning ijtimoiy mohiyati va funkciyalarini o'zlashtirishdan iborat.

Motivlar ierarxiyasi – Tarbiya sharoitiga qarab turli motivlarning ahamiyatliligiga ko'ra tabaqlanishi.

**Chaqalolik davri.** Odamzod bolasi boshqa jonzodlar bolasiga nisbatan ancha zaif tug'iladi. Unda zarur fiziologik funkciyalarning kechishi uchun zarur bo'lgan shartsiz reflekslari, himoya refleksi va orientirovka reflekslaridir. Chaqaloqlik davrida bosh miyaning rivojlanishining zarur sharti – analizatorlarning aktiv ishlashidir. Agar chaqaloq sensor izolyaciya holatiga tushib qolsa, uning rivojlanishi keskin ravishda orqada qola boshlaydi. 2-3 oylikka borganda bolaga tashqi muhitga va kattalarga nisbatan maxsus emocional harakat paydo bo'ladi. Oyoqi va qo'llari bilan tipirchilay boshlaydi. Bu reakciya jonlanish kompleksi deb ataladi. Uning paydo bo'lishi chaqaloqlik davri tuguganligini bildiradi.

**Go'daklik davri.** 2-3 oydan 1 yoshgacha davrni o'z ichiga oladi. Bu yosh davrda etakchi faoliyat kattalar bilan emocional muloqotdir. Bu muloqot sekin-asta birgalikda faoliyatga aylanib boradi. Muloqot davomida nutqning asoslari rivojlanib boradi. 2 oydanoq bolalarda g'o'ldirash belgilari paydo bo'ladi.

Sekin-asta taqlid asosida bola ona tilining fonemasini o'zlashtira boshlaydi. 1 yoshda bola 30-40 ta so'zni o'zlashtirish kerak. Kattalar bilan muloqot davrida bolaga yurish, predmetlar bilan harakat qilish o'rgatilgandagina bola tarbiyalanadi va psixik taraqqiyot yuz beradi.

O.Bryune ma`lumotlariga ko`ra bolalar hayot sharoiti va tarbiya uslubidan qat`iy nazar psixik rivojlanishda bir xil natija ko`rsatadilar. 1 yoshgacha bo`lgan davrda ota-onasidan ajralgan bolalar oiladagi sharoitidan kat`iy nazar psixik rivojlanishdan orqada qolar ekanlar.

1 yoshgacha bo`lgan davrda bola psixik jarayonlar va sifatlarning rivojlanishida katta natijalarga erishadi. Avval boshini tutishni, emaklashni, 6 oyga borib, o`tirishni o`rganadi. 3-4 oylikdayoq predmetlarni ushlay boshlaydi va harakatlarni namoyon qiladi. Bu harakatlar avvaliga tartibsiz bulib, bola ko`p xato qiladi, keyinchalik sekin-asta harakatlar aniqlasha boradi. Go`dak predmetlar bilan oddiy manikulyaciya qilishni o`rganadi. So`ngra bu oddiy harakatlar ichki planga – ko`rish idroki planiga o`ta boshlaydi. Go`daklikning oxiriga kelib bolalarga taqlidchanlik kuchayadi.

Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davrining oxiriga kelib boshqa faoliyat turlari, masalan, qiyin va produktiv faoliyati (rasm chizish, plastilindan narsa yasash) rivojlana boshlaydi.

Bu yosh davri nutqning rivojlanishidagi senzitiv davri hisoblanadi. 1,5 yoshgacha bola 100 tacha, 2 yoshgacha 300 tacha, 3 yoshgacha 1500 so`zni o`zlashtiradi. Tilning grammatik tuzilishini o`zlashtirish bir necha bosqichga bo`linadi.

1. Avtonom nutq davri 1-2 yoshda bo`lib, nutq amorif so`z o`zaklardan iborat.
2. 3 yoshgacha davrda esa ona tilining grammatik tuzilishini o`zlashtira boshlaydi. Ilk bolalik davrida predmetlik faoliyati asosida tafakkur rivojlana boshlaydi.

Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini engil o`zlashtirib oladi. Tadqiqotchi E.K.Kaverlanning tajribasida tasdiqlanganidek bolaning predmetlarni tushunishi quyidagi tartibda yuz beradi:

- 1) bola eng avval predmetlarning nomlanishini;
- 2) katta odamlarning va o`yinchoqlarning nomlarini o`zlashtiradi;
- 3) tana a`zolarining nomlarini o`zlashtiradi.

Ilk bolalik davrida bola shaxsi shakllanishi boshlanadi. Bolada “men o`zim” konsepciyasi vujudga keladi. Bu yosh davri 3 yoshlilar krizis davrining yuzaga kelishi bilan tugaydi. Krizisning sababi bolada ma`lum darajada mustaqillikka ehtiyojning paydo bo`lishi, kattalarning esa eski munosabatlar tipini saqlab qolishidir.

Maktabgacha yosh davri. 3 yoshdan 7 yoshgacha organizmning intensiv o`sishi davom etadi. Bosh miya og`irligi 1350g-gacha etadi, ikkinchi signal sistemasi rivojlanadi. Bolaning ijtimoiy situaciysi o`zgaradi. O`yin faoliyati etakchi faoliyat turidir. Rolli o`yinlar jarayonida ular katta odamlarning barcha vazifa va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. Rolli o`yinlarni vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri, bolada o`z xatti-harakatlarini kattalar xatti-harakati bilan solishtirish, undan nusxa olish tuyg`usining mavjudligidir. Bolalarning o`yin faoliyati D.B.el`konun, A.S.Slavina, A.P.Usova va boshqa psixologlar o`rganishgan. O`yin faoliyati ixtiyoriy diqqat va xotiraning, tafakkurning rivojlanishini belgilab beradi. Bola predmet va harakatlarni birlashtirishni

o'rganadi. Bolaning hayoli ham faqat qiyin faoliyatdagina rivojlnana boshlaydi. 3 yoshdan 7 yoshgacha barcha bilish jarayonlari o'sadi, sezgirlik kuchayadi, bola sensor etalonlarni o'zlashtiradi, xotiraning hajmi o'sadi. Ilk bolalik davrida ko'rgazmali harakatli tafakkur va sekin-asta mantiqiy tafakkur shakllari etakchi rol` o'ynay boshlaydi. Bolaning tafakkuri tarli faoliyatlarda, xususan, o'yin faoliyatida rivojlanadi. Predmetlarni ularning simvollari bilan almashtirish yuz beradi. Bilish jarayonlari va o'yin faoliyati bola nutqini rivojlantiradi. Bolaning nutqi situativ xarakterga ega, maktabgacha yosh davrining oxiriga kelib esa u o'z ona tilini, grammatik tuzilishini yaxshi o'zlashtiradi, ichki nutq paydo bo'ladi, nutq alohida faoliyat tarzida shakllanadi.

Bola shaxsining rivojlanishida ham o'zgarishlar yuz beradi. Uning shahsiy xulq atvori aktivligida esa motivlar shrarxiyasi paydo bo'la boshlaydi. O'zining va tengdoshlarining ishlarini baholay boshlaydi. Shu tarzda o'z-o'zini baholash yuzaga keladi. Maktabgacha yosh davr davomida maktab ta`limiga tayyorlik shakllanadi. 6 yoshli bolada bilimga qiziqish, (narsa va hodisalarining xossalari qidirish va taqqoslash, ajablanish) oddiy aqliy operaciyalarni bajara olish qobiliyati shakllangan bo'lishi, emocionalg'irodaviy jihatlari, muloqot ko'nikmalari etarlicha bo'lishi kerak.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Kattalar bilan muloqot go'dak psixik taraqqiyoti uchun qanday ahamiyatga ega?
2. Ilk bolalik davrida nutkning rivojlanish bosqichlari qanday?
3. Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari qanday o'sadi.
4. O'yinning qanday ko'rinishlarini bilasiz?
5. Bolaning maktab ta`limiga psixologik tayyorligi belgilari qanday.

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1997.
2. E.G`oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
3. E.G`oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
4. M.Vohidov. «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1982.
5. Muxina V.S. "Detskaya psixologiya". M: 1985
6. Leshli Dj. "Kak rabotat` s malen`kimi det`mi". M: 1991
7. Muxina V.S. "Shestiletney rebenok v shkole". M: 1986
8. Rogov E.I. "Nastol`naya kniga prakticheskogo psixologiya v obrazovanii". M: 1996

**Mavzu:** Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

### **R E J A :**

1. Kichik maktab yoshida anatomo - fiziologik rivojlanish.
2. Kichik maktab o'quvchilarida bilish jarayonlarining o'sishi.
3. Kichik maktab yoshi davrida asosiy psixologik o'zgarishlar.
4. O'quv faoliyatining strukturasi.
5. Kichik maktab yoshida shaxs rivojlanishi va o'zaro munosabatlarning xususiyatlari.

### **ASOSIY TUSHUNCHALAR**

**Refleksiya** – bola o'z xatti-harakatlari, xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslash va o'zini xolis baholay olish xususiyatlari. Ko'rgazmali – obrazli tafakkur - narsa va predmetlarning bevosita idrok etiladigan obrazlariga asoslangan tafakkur turi.

**O'quv situaciysi** – konspekt amaliy masalalarni echish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiy usullarini o'zlashtirish.

**Anatomo** – fiziologik xususiyatlari. Umurtqa pog'onasining barcha bo'g'inlari shakllanadi, miyaning og'irligi 1400 gr-gacha etadi, uning analitik-sintetik faoliyati takomillashadi. Bolaning bo'yisi va og'irligi, o'pkasi mutanosib o'sadi. Katta muskullar kichik muskullar sistemasidan avvalroq rivojlanadi. Shuning uchun serharakat, yugurib charchamaydigan, lekin yozuv mashqlaridan tez toliquivchan bo'ladilar. Shu sababli 1-2 sinflarda yozuv topshiriqlari juda ko'p bo'lmasligi kerak. Birinchi sinfda bolalarda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar quyidagilar:

1. Kun tartibi bilan bog'liq qiyinchiliklar. O'quvchi dars va uy vazifalarini bajarishi bilan bog'liq yangi kun tartibiga o'rganishi lozim. Buning uchun kattalar bolaga qo'yiladigan yangi talablarni tushuntirishlari va ularning bajarilishini nazorat qilishlari lozim.
2. Muloqot bilan bog'liq qiyinchiliklar bo'lib, ular o'qituvchi bilan, sinfdoshlari bilan yangicha munosabatlar o'rnatilishi zaruriyati bilan bog'liqdir.
3. Bu qiyinchiliklarni o'quvchilar o'quv yilining o'rtalarida his qila boshlaydilar. Birinchi sinf o'quvchilarida odatda mактабning ташқи атрибутларига қизиқиш mavjud bo'lib, o'quv materialining мазмунига қизиқиш esa zaif shakllangan. Shu sababli o'quvchida o'qishga қизиқиш yo'qolishi,

maktabga borishdan bosh tortishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga aktiv intellektual harakatlarni talab qiladigan masalalar berish , oddiy yodlashni talab qiladigan masalalarni iloji boricha kamaytirish kerak.

O'quv faoliyati. U quyidagi struktura tuzilishiga ega:

- 1) O'quv situaciyalari. Unda o'quvchilar konkret amaliy masalalari echish yoki tushunchalarni o'zlashtirishning umumiyligi usullarini o'zlashtirishlari kerak. O'quvchi ularni shunday muammoli vaziyat sharoitga qo'yish kerakki, unda o'quvchilar bu usullarni topa olishlari zarur.
- 2) O'quv harakatlari. Har bir o'quv predmetida o'quv masalalarini echish uchun bir nechta o'quv amallari va ularning ketma-ketligini bajarishni o'zlashtirish muhimdir. Buning uchun o'qituvchi dars davomida o'quv harakatlarining mashqlar yordamida mustahkamlanishini ta'minlashi lozim.
- 3) O'quv faoliyati to'liq shakllanishi uchun yana bir komponent – nazoratning shakllanishi zarurdir. O'quvchi o'z harakatlarini va ularning natijalarini berilgan namunalar bilan taqqoslashi va baholay olishi kerak. Avval bu vazifani o'qituvchi bajaradi.
- 4) Baholari – o'quv situaciyasining talablariga erishilgan natijaning mos kelish-kelmasligi darajasini aniqlashdir. O'quvchining faoliyatiga qo'yiladigan baho sinf jurnaliga qo'yiladigan baho bilan cheklanmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchi bilimini baholashning turli usullarini qo'llashi kerak.

**Bilish jarayonining o'sishi.** Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, raxonligi bilan ajralib turadilar. Buni ularda birinchi signal sistemasining ustunligi bilan izohlash mumkin. Ta'lim jarayonida o'quvchilar idroki perzeptiv faoliyat darajasiga ko'tariladi. Birinchi va ikkinchi sinflarda o'quvchilararning diqqati etarli barqaror emas. 3-4-sinf o'quvchilari esa butun dars davomida o'z diqqatlarini saqlab tura oladilar. Lekin ular uchun ham dars davomida qisqa tanaffuslar foydalidir. Bolalarda birinchi signal sistemasini ustun bo'lganligi sababli mantiqiy xotiradan ko'ra ko'rgazmali-harakatli xotira muhimroq rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'quv materiallarining ma'nosini, turli mulohazalarni ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o'quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi. Uning rivojlanishi ko'p jihatdan o'quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog'liq.

Kichik maktab yoshdagi tafakkurning xususiyatlaridan biri narsalarning ba`zi belgilari doimiyligini payqab olmaslikdir. Bolalar tafakkurining bu xususiyatini shveycariyalik J.Plaje o'rgangan. Narsa va hodisalarning xossalari, qonuniyatlariga ko'ra muhim belgilarga asoslanib umumlashtirish xususiyati esa keyinroq shakllana boshlaydi. Bolalar ancha vaqtgacha predmetlarning muhim va nomuhim belgilarini ajrata olmay qiynaladilar. Shuning uchun tushunchani to'g'ri umumlashtirish usullarini o'rgatish kerak.

**Kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik o'zgarishlar.** Bu yoshda etakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, ta'lim jarayoni psixikada yangi xususiyat va sifatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

1. Xatti-harakatlarning ixtiyoriy xususiyat bo'lib, o'quvchi ishlarini avvaldan rejalashtirish, ongli ravishda faoliyat maqsadlarini tanlashni o'rganadi.
2. O'quvchi biror masalani echish davomida har bir harakatning tartibi, variantlarini qidiradi, masalaning hal qilinishini nazorat qiladi, ya`ni o'quvchi xatti-harakatlarini ichki planda bajarishni o'rganadi.
3. Bola o'z xatti-harakatlarini va xulq-atvorini boshqalar bilan taqqoslaydi, o'zini xolis baholashni o'rganadi, ya`ni refleksiya rivojlanadi.

**Bolalar shaxsining rivojlanishi.** Bu yoshda xulq-atvorning axloqiy normalari intensiv shakllana boshlaydi. Kichik yoshdagi o'quvchilar bu normalarni o'zlashtirish uchun psixologik jihatdan tayyor bo'ladilar. O'qituvchi ulardagi ijobiy axloqiy sifatlarni rahbatlantirishi,, salbiylari shakllanishining oldini olishi zarur. Bu yosh davridagi bolalarning o'zaro munosabatlari asosan tashqi hiyotiy shart-sharoitlar va tasodifiy omillar bilan belgilanadi (bir partada o'tirishi, bir uyda yashashi va h.k.). Lekin o'qituvchi ular uchun eng asosiy referent shaxs sifatida idrok qilinadi.

### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:**

1. Kichik maktab o'quvchisining anatomo-fiziologik rivojlanishi qanday ko'rsatkichlarga ega?
2. Kichik maktab yoshidagi asosiy psixologik yangiliklar nimadan iborat?
3. Kichik maktab o'quvchisining o'quv faoliyati qanday tuzilishga ega?
4. Bu yoshda bilish jarayonlari qanday rivojlanadi?

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1997.
2. E.G`oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
3. E.G`oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
4. E.I.Rogov. “Nastol'naya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovaniy”. M: 1996
5. I.V.Dubrovina. “Individual`nqe osobennosti shkol`nikov”. M: 1875

**Mavzu:** O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

### **R E J A :**

1. O'tish davri inqirozi va uning sabablari.
2. O'smirdagi asosiy psixologik o'zgarishlar.
3. O'smirda bilish jarayonlarining o'sish va o'qish faoliyati.
4. Tarbiyasi qiyin o'smirlar.

**Xarakter akcentuaciysi** – K.Leongard tomonidan kiritilgan tushuncha bo'lib, xarakter ba`zi sifatlarning yorqin ifodalanganligining namunasidir. Xarakter akcentuaciyasini bilish o'smirlarga individual yondashish, kasbga yo'naltirish kabilarda zarurdir. O'z-o'zini baholash – shaxsnинг o'zini boshqalar bilan taqqoslash va refleksiya natijasida o'z-o'zini baholash murakkab va o'zgaruvchan bo'lib, shaxs strukturasida katta o'rinni tutadi.

**Anatomo – fiziologik xususiyatlari.** Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o'smir organizmida sifat jihatdan o'zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o'g'illarda 13-15 yoshda bo'lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo'ladi, o'smirning tashqi ko'rinishi o'zgaradi. Muskullar massasi va muskul kuchi o'sadi, bu holat jinsiy etilish davrining oxiriga borib tezlashadi. Ichki organlar, xususan yurak o'sadi. Ba`zan yurak qon-tomir sistemasida patologik o'zgarishlar yuz beradi.

**O'tish davrining inqirozi haqida nazariy qarashlar.** Biogenetik yo'nalish vakllari S.Xall va Z.Freyd bu inqiroz biologik shartlanganligi tufayli muqarrardir deb hisoblasalar, amerikalik antropologlar M.Mid va R.Benedikt o'smirlik inqirozi ijtimoiy munosabatlarning natijasidir deb isbotlaydilar. R.Benedikt bolalikdan kattalikka o'tishning 2 usulini ko'rsatadi.

K.Levin (AQSh) fikricha jamiyat kattalar va bolalar guruhlariga bo'linadi. O'smir esa oraliq guruhni tashkil etadi.

**O'smirlardagi asosiy psixologik o'zgarish.** O'smir o'zini asta-sekin katta odam deb his qila boshlaydi, lekin ko'p odad va xususiyatlari bolalarcha bo'lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o'smirlikdagi asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o'smirda o'ziga, atrof muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy poziciyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientaciya qila boshlaydi. O'smir o'z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni

esa cheklashni xohlaydi. Kattalar va o'smirlar orasidagi zididiyatlarning sababi – kattalarda ularga nisbatan bolalarcha munosabatning saqlanib qolishidir. O'smirning mustaqillik darajasi haqidagi tasavvurlar kattalar va o'smirlarda turlicha. Kattalar bu yoshda o'smirlarga o'z yonidan joy berishni o'rganishlari lozim. Shu sababli o'smirning tengqurlari bilan munosabati yangi specifik funkciyani bajara boshlaydi, ya`ni bu munosabatlarda o'smir amalda kattalar axloq normalarini o'zlashtira boshlaydi. O'smirlar uchun tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqot etakchi faoliyat bo'lib qoladi.

**Bilish jarayonlarining o'sishi.** O'smirning qiziqishlari ortadi, bilish faoliyati maktab programmasidan tashqariga chiqadi, mustaqil o'qiy boshlaydi. Uning tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik hosil bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga o'quv materiallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o'z fikrini to'g'ri, ravon va aniq ifodalash yo'llini tushuntirib berishlari lozim. O'smirlarning o'quv faoliyatida, o'quv materialini o'zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o'quvchilarni uchratish mumkin. O'quv faoliyatidagi kamchiliklar kichik sinflarda bilinmagan bo'lsa, V-VI sinflarda o'zlashtirishi keskin farqlanadigan bolalar ko'zga tashlanib qoladi. O'smirlarda nazariy, formal va refleksiv tafakkur turlari shakllanadi. Xotira, idrok jarayonlari ham intellektualizaciya bo'la boshlaydi, ya`ni o'smir o'quv materiallarini tushinib idrok qilish va eslab qolishni o'rgana boshlaydi.

O'smirlarning o'z-o'zini anglashi sifat jihatidan o'zgaradi. O'zi haqida uylash, o'zini boshqalar bilan taqqoslash o'smirning xususiyatidir. O'smir o'z kamchiligi ustida uylaydi, o'zidan qoniqmaslik hissi paydo bo'ladi. Ko'pchilik o'smirlar kattalarga o'xshaydigan o'z tenglashlariga o'xshashga harakat qiladilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin:

- orsiz, subutsiz o'smirlar;
- mustaqil fikrga ega bo'lмаганлар;
- shaxsiy talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qonunbuzarlik yo'liga kirgan o'smirlar;
- injiq tabiatli o'smirlar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni yuzaga keltiruvchi sabablar quyidagilar:

- shaxsnинг biologik kamchiliklari;
- psixik rivojlanishdagi kamchiliklar;
- shaxs tarbiyasidagi nuqsonlar;
- bilish faoliyatidagi kamchiliklar;
- maktab ta`limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- maktabdan tashqari muhitdagi kamchiliklar.

## ***NAZORAT UCHUN SAVOLLAR:***

1. O'smir organizmidagi asosiy anatomo-fiziologik o'zgarishlar qanday?
2. O'smirlar va kattalar o'rtasidagi asosiy ziddiyatlarning sabablari nimalardan iborat?
3. O'smirning psixik rivojlanishida muloqot qanday rol` o'ynaydi?
4. Tarbiyasi qiyin o'smir xulq-atvorida salbiy xususiyatlar paydo bo'lishining sabablari qanday?
5. O'smirlarda xarakter akcentuaciysi qanday ko'rinishlarda namoyon bo'ladi?

### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. I.A.Karimov. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1997.
2. E.G'oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
3. V.Karimova. «Psixologiya». Toshkent. 2000.
4. E.I.Rogov. Nastol`naya kniga prakticheskogo psixologa v obrazovanii. M.: 1996.
5. A.E.Lichko. Podrostkovaya psixiatriya. L.: 1979.
6. Rabochaya kniga shkol`nogo psixologa. M.: 1991.

**Mavzu: Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari**

### **R E J A :**

1. Ilk o'spirinlik yoshda jismoniy taraqqiyot.
2. O'spirin shaxsining rivojlanish xususiyatlari.
3. O'spirinning xususiyatlari va kasb tanlashning psixologik xususiyatlari.
4. O'spirinlarning psixologik munosabatlari.

“Men” – konsepciya – individning o'z shaxsi haqidagi nisbatan turg'un, anglangan, boshqalar bilan munosabatlarni tashkil etishga asos bo'ladigan tasavvurlari. U o'spirinlik davrida turli, rang-barang ko'rinishli va intensiv shakllanish davrini boshdan kechiradi.

Do'stlik – o'spirinlik yoshida intensiv rivojlanuvchi mustahkam, individual tanlov asosidagi shaxslararo munosabatlardir. O'spirinlarda bu hissiyot o'zaro “yoziб qo'yilmagan” kodekslarga asoslanadi. Do'stlikning barqarorligi esa qadriyatlar oriyontaciyasining bilimi bilan belgilanadi.

Qiziqishlar xaritasi – E.A.Klimov tomonidan ishni aniqlashga qaratilgan psixologik metodika.

**Jismoniy taraqqiyot.** Ilk o'spirinlik yoshi davrida 14-15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган o'quvchilar mansubdir. Ularda bo'yning o'sishi o'smirlilik davriga qaraganda sekinlashadi. Qizlarda 16-17 yoshda, o'g'il bolalarda 17-18 yoshda bo'yning o'sishi to'xtaydi. O'spirinlarda muskul kuchining o'sishi katta odamnikiga yaqinlashadi. Sportning ko'pgina turlarida o'spirinik davri yuksak natijalarga erishish davridir.

**Ijtimoiy holati.** O'spirin 16 yoshda pasport oladi. 18 yoshdan saylash, saylanish, oila qurish huquqiga ega bo'ladi. O'spirinlik davrining yana bir muhim vazifasi – kasb tanlashdir. Bu yoshdagilar maktab o'quvchisi bo'lishdan tashqari kollejda o'qishi, ishlashlari mumkin. Ularning ba`zilari bir vaqtning o'zida ham o'qib, ham ishlaydilar.

### *Psixologik xususiyatlari*

**Ilk o'spirnilik** eng muhim psixologik xususiyati – o'z ichki dunyosini kashf etadilar. Ular o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch vijdon hissi, o'z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o'z-o'zini anglash - quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtda bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo'lishi mumkin. O'spirin kechinmalarida asosiy o'rinni kelajak haqidagi o'ylar egallaydi.

O'spirnilar uchun yana bir muhim kechinma o'zining tashqi ko'rinishi haqidagi o'ylardir. Juda ko'pchilik o'spirinlar o'z tashqi ko'rinishini o'zgartirishni xohlagan bo'ladilar. Tashqi ko'rinishlaridagi ozgina kamchilik ular uchun "fojia" darajasiga ko'tariladi.

Umuman, refleksianing o'sishi, o'z "men"iga qiziqishning ortishi barcha o'spirnlarga xos xususiyat. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo'lib, o'tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o'spirinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi. O'spirinlarda refleksianing kechishi ko'pgina ijtimoiy, individual-tipologik, biografik omillarga bog'liqdir.

**O'spirinlar aql-idrokining xususiyatlari.** Bu yoshda o'quvchilarda bilish jarayonlari kichik yoshdagilar kabi intensiv o'smasa-da, lekin mustahkamlanib, stabillashib boradi. O'spirinlarda barcha faoliyat turlarida mustaqil fikr yurita olmaslik ularning jiddiy kamchiligidir. Fan o'qituvchilar har bir predmetdan o'spirinlarni original fikr yuritishga o'rgatishlari zarur. Tafakkur bilan birga o'quvchining nutq faoliyati ham o'sadi.

O'spirinlik qobiliyati va layoqtari o'qish faoliyati davomida namoyon bo'la boshlaydi. O'spirinlarda maxsus qobiliyatlar ko'zga tashlanadi.

**Kasb tanlash muammosi.** Albatta, kasb tanlash muammosi o'spirin hal qilishi kerak bo'lган eng muhim muammolardan biridir. Maktabni bitirguncha hamma o'quvchilar ham bo'lajak kasbni aniq tanlaydi deb bo'lmaydi. O'spirinlarning ba`zilari kasblari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladilar, rejalarini oldindan tuzadilar. Ba`zilari esa kasblarni ota-onalarni yoki boshqa kattalarning ta`risida tanlaydilar. Ba`zi o'spirinlar esa bo'lajak kasblarini tasodifiy sabablarga ko'ra tanlaydilar. (o'quv yurti uyiga yaqin bo'lgani uchun, o'rtog'i shu o'qishga kirgani uchun va h.k.) Bu esa keyinchalik tanlagan kasbidan ko'ngli sovishi, o'z kasbidan norozi bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

**O'spirinlarning o'zaro munosabatlari.** O'spirinlar do'stlik tuyg'usini insoniy munosabatlarning eng muhimi deb hisoblaydilar. Ular do'stlikka juda katta talablar qo'yadilar. O'spirinlar do'stlikning eng muhim funkciyalaridan biri uning o'ziga xos "psixoteropiya" rolini o'ynashidir. O'spirin o'z "men"ining hurmat qilinishi, qo'llab-quvvatlanishini do'stidan kutadi. O'spirinlar odatda o'z jinsidan, tengdoshlaridan do'st tanlaydi. Qizlarning va yigitlarning do'stligi orasidagi tafovutlar hali to'liq o'rganilmagan. Bu yoshda yigit va qizlar o'rtaida ilk romantik munosabatlar paydo bo'ladi. Shunisi qiziqarlik, bu munosabatlar "epidemiya" xarakteriga ega. Ba`zi guruhlarda hamma shu "kasallik" bilan og'risa, ba`zilarida umuman bunday munosabatlar bo'lmaydi.

#### **NAZORAT UCHUN SAVOLLAR :**

1. O'spirinning jismoniy rivojlanishi qarashlari qanday?
2. O'spirin shaxs shakllanishning ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari qanday?
3. Sinf jamoasi va boshqa guruhlarda o'spirinlarning o'zaro munosabatlari qanday xususiyatlariga ega?
4. O'spirinlarning kasb tanlashda qanday motivlar etakchi rol` o'ynaydi?

#### **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:**

1. Karimov. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». Toshkent. «O'zbekiston». 1998.
2. I.A.Karimov. «Barkamol avlod orzusi». Toshkent. 1999.
3. E.G`oziev. «Psixologiya». Toshkent. «O'qituvchi». 1994.
4. E.G`oziev. «Pedagogik psixologiya asoslari». Toshkent. 1997.
5. Kon I.S. Psixologiya yunosheskogo vozrasta. M.: 1979
6. Mudrik A.V. O vospitanii starsheklassnikov. M.: 1981
7. Klimov E.A. Put` v professiyu. Leningrad: 1980
8. Zaxarova A.V. Psixologiya obucheniya starsheklassnikov. Riga: 1980

## **MUNDARIJA:**

|   |    |
|---|----|
| Mavzu: Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiyaning predmeti..... | 3  |
| Mavzu: Psixik taraqqiyot qonuniyatlari.....                                   | 4  |
| Mavzu: Maktabgacha yosh davri psixologiyasi.....                              | 10 |
| Mavzu: Kichik maktab yoshi psixologiyasi.....                                 | 14 |
| Mavzu: O'smir psixologiyasi.....  | 18 |
| Mavzu: Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari.....                | 21 |
| Mavzu: Ta`lim psixologiyasi.....  | 24 |